

Единый портал корпоративной информации

Объявления

Asakabank

Объявление

"ASAKABANK" AKSIYADORLIK JAMIYATI

AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHI

"Asakabank" AJ Kengashining 2024-yil 5-fevraldagi qaroriga muvofiq, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2024-yil 27-fevral soat 15:00da "Asakabank" AJ bosh ofisi binosi (manzil: Toshkent sh. Nukus ko'chasi, 67-uy)da quyidagi kun tartibi asosida bo'lib o'tadi:

KUN TARTIBI

- 1) "Asakabank" AJning 2024-yil uchun mo'ljallangan biznes rejasini tasdiqlash;
- 2) "Asakabank" AJning Ustaviga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tasdiqlash;
- 3) "Asakabank" AJning bir qator ichki normativ hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tasdiqlash;
- 4) 2024-yil uchun "Asakabank" AJ Boshqaruviga to'lanadigan haq va uning eng yuqori miqdorini belgilash;
- 5) "Asakabank" AJ balansida hisobi yuritilayotgan kredit qarzdorliklari evaziga Bank balansiga qabul qilingan mol-mulklarni "Asakabank" AJ ustav kapitalidagi davlat ulushini kamaytirish hisobiga Davlat aktivlarini boshqarish agentligi balansiga o'tkazib berish masalasini ko'rib chiqish;
- 6) "Asakabank" AJ Boshqaruvining Bankning "umidsiz" aktivlarini undirish bo'yicha qo'llangan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisoboti;
- 7) "Asakabank" AJning balansdan tashqari hisobvaraqlariga o'tkazilganiga 5-yildan oshgan, bugungi kunda undirilishi istiqbolsiz bo'lgan aktivlarni hisobdan chiqarish;

"Asakabank" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi to'g'risida Bank aksiyadorlariga xabar berish uchun tuziladigan reyestr sanasi – 2024-yil 5-fevral.

"Asakabank" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qatnashuvchi Bank aksiyadorlari reyestrini tuzish sanasi – 2024-yil 21-fevral.

"Asakabank" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibidagi materiallar bilan, 100015, Toshkent shahri, Nukus ko'chasi 67 uyda joylashgan Bankning bosh ofisi binosida tanishish mumkin: Tel. (78) 147-65-65 (11-32), Korporativ munosabatlar xizmati.

06.02.2024

Дата: 06.05.2026